

**NODAVLAT, NOTIJORAT TASHKILOTLAR YANGI O'ZBEKISTON BARPO ETISHNING
MUXIM SHARTI SIFATIDA**

Haqliev V.B.

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son
Toshkent Akademik litsey o'qituvchisi, t.f. n., dotsent*

Dusimmatov K. Yu.

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son
Toshkent Akademik litsey o'qituvchisi*

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan xalq tashabbusining tashkiliy institutlashgan ko'rinishlaridan keng tarqalgani jamoat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Nodavlat, notijorat tashkilotlar esa ham atalishi, ham tashkiliy xususiyatiga ko'ra respublikamizda shakllanmoqda va takomillashib bormoqda.

BMT memorandumida jamoat tashkilotlari davlat va iqtisodiyotdan keyingi "uchinchi sektor", deb ataladi. Ko'pgina davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Avstriya, Gollandiya va b.) ular "nodavlat", "nohukumat", "mustaqil", "notijorat" birlashmalari, deb nomlanadi. "Nohukumat tashkilotlar" atamasi, – deyiladi BMT memorandumida, – unga qarama-qarshi bo'lgan "davlat tashkilotlari" atamasining ayni teskari ma'nosiga ega. BMT tizimidagi hukumat tashkilotlari davlatlararo bitimlar asosida yuzaga kelib, unga a'zo bo'lgan hukumatlardan tashkil topadi. Nodavlat tashkilotlari esa davlatlararo bitimlar asosida tuzilmaydi va unga kiruvchi hukumatlardan iborat emas. Nodavlat tashkilotlari milliy va xalqaro miqosda, umumiy va maxsus yo'nalishlarda ixtisoslashgan bo'lib, ular BMT tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bilan maslahat hamda operativ vakolatlar asosida o'zaro hamkorlik qilishi mumkin. Biroq bu hol davlat nodavlat tashkilotlariga mutlaqo yordam bermasligi kerak, degan ma'noni anglatmaydi. Har bir davlat ichki xususiyatlaridan va tarixiy tajribasidan kelib chiqib, unga, ayniqsa dastlabki paytda, yordam ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda jamoat tashkilotlarini tashkil etishda ana shu tajribaga tayanadi. Ammo jamoat tashkilotlarining davlat organlari chiqargan maxsus qaror asosida tashkil etilishi – ushbu tashkilotlarning davlat tashkilotlari, deb qarashga asos bo'lolmaydi, chunki ular aslida jamoatchilikka, uning ixtiyoriy yordamiga tayanib ish yuritadilar.

Nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy funksiyalari rang-barangdir. Ular fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari hamda

erkinliklarini ro'yobga chiqarishga, ularning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladilar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda respublika, xalqaro maqomga ega bo'lgan, viloyatlarda, respublikada nodavlat va jamoat tashkilotlari mavjuddir. Dinamik nuqtai nazardan, ularning soni va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi ancha oshgan.

Nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlarining jamiyatdagi islohotlarga nisbatan mavqeini, davlat hokimiyati bilan aloqalarini aniqlab mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, hozirgacha qonunda davlat hokimiyati bilan nodavlat va jamoat tashkilotlarining bir-biridan farq qiluvchi funksiyalari, xususiyatlari, tashkiliy mexanizmlari va aloqadorlik yo'nalishlari to'liq holda aniqlab berilmagan. Yu. Utkinning fikricha, nodavlat va jamoat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish, davlat hokimiyatining jamoat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining davlat hokimiyati oldidagi o'zaro mas'uliyatlari, burchlari aniq belgilanmagan. Qonunlarda jamoat tashkilotlarining davlat soliq qo'mitalari bilan munosabatlari, soliq to'lash tartiblari ko'rsatilmagan. Respublikamizda Soliq kodeksi qabul qilinganiga qaramay, unda nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari haqida hech nima deyilmagan. Ushbu tashkilotlarning xayriya ishlari soliqlardan ozod etilmagan⁸.

Nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari fuqarolarga eng yaqin, ularning qiziqish va manfaatlarini to'liq ifoda eta oladigan ixtiyoriy birlashmalardir. Aynan shu nuqtai nazardan, ular davlat hokimiyati bilan xalq o'rtasidagi vositachi institut sifatida qaraladi⁹. "Fuqarolarning ixtiyoriy jamoatchilik birlashmalari va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmi hamda uslublarini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega masalalardan biridir. Binobarin, ular davlat yuritayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishda asosiy vositachi va hamkor hisoblanadilar. Bu aloqalarni yanada mustahkamlash, jamoat tashkilotlari va davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi bir-birini takrorlash, aynan o'xshashlik kabi holatlardan qutulish, mazkur sohadagi ishlarni muvofiqlashtirgan holda olib borish uchun taraqqiy etgan davlatlardagi singari (AQSh, Buyuk Britaniya) yaxlit mexanizmini tashkil etish maqsadga muvofiqdir".

Nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlarining faoliyati ijtimoiy-siyosiy sohani erkinlashtirish borasida davlatimiz olib borayotgan demokratik

⁸ Қаранг: Гражданское общество и неправительственные организации // Бюллетень Национального центра Республики Узбекистан по правам человека. 1998. № 5. С. 6.

⁹ Қаранг: Тангриев Л. Мустақиллик ва жамоат ташкилотлари. Т.: Янги аср авлоди, 2000. 18-6.

islohotlarning tub maqsadlari, ushbu islohotlardan kelib chiqadigan vazifalar bilan chambarchas bog'liqdir¹⁰. Ixtiyoriy birlashmalar faoliyatining asl mohiyati ham davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga fuqarolarning kengroq qismini jalb qilish, ularda mustaqillik mas'uliyatini, vatanparvarlik tuyg'usini, o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, har bir kishidagi ijtimoiy-madaniy kuchlarni harakatga keltirish, ularda ijod qilish istaklarini tarbiyalashdir.

Shuning uchun nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari kundalik turmushda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etish (masalan, mahalla atroflarini tozalash uchun hashar uyushtirish, yolg'iz kishilar ahvolidan xabardor bo'lish kabilar)dangina bo'lib qolmay, balki ular shaxsining ijtimoiylashuvi va barkamol avlod bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Agar gap xalq hokimiyatchiligining mustahkamlanishida ixtiyoriy birlashmalarining hozirgi davrdagi muhim vazifasi to'g'risida ketadigan bo'lsa, u holda fuqarolarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat har bir fuqaroga o'z haq-huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga, ularni to'rachilik, byurokratiya, manmanlik, g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilish imkonini beradi. Bu borada respublikamizda aholi huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keng huquqiy-ma'rifiy institutlar, birlashmalar tizimlari yuzaga keldi. Ular qatorida Inson huquqlari milliy markazi, huquqiy-targ'ibot markazlari, O'zbekiston Advokatlari assotsiatsiyasi, O'zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi, "Gender va taraqqiyot" byurosi vakolatxonalarini kabilar shular jumlasidandir.

Birinchi, fuqarolarning ko'pchiligi nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlarining faoliyatidan qoniqmaydi. Biroq bu nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari mutlaqo faoliyat ko'rsatmayapti degani emas, balki ularning faoliyati davr talabiga, kishilarning o'sib borayotgan qiziqishlari va manfaatlariga asta-sekin javob bermoqda.

Ikkinchi, nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlarining o'zi yangi qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy kafolatlarga muhtojdir.

Uchinchi, nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari davlat hokimiyatiga "yordamchi", "yugurdak", degan eski qarash davom etmoqda. Mahalliy hokimiyatning ular funksiyalariga taalluqli bo'lmagan ishlarga jalb etayotganiga, ularning rahbarlari ma'muriy buyruqbozlar bilan almashtirilayotganiga, fuqarolarning oddiy huquqlari buzilayotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Demak, fuqarolarning huquqiy

¹⁰ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг "Референдум яқунлари ҳамда давлат ҳокимияти ташкил этилишининг асосий принциплари тўғрисида"ги конституциявий қонуни // Халқ сўзи. 2002. 12 апр.

madaniyatini keskin oshirmay turib, demokratik islohotlarda yuz berishi zarur samaralarga erishib bo'lmaydi.

Huquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs huquqlari va erkinliklari hajmining kengayishi, ularning himoyalanganlik darajasining ko'rinishidir. Huquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamda madaniyatdagi oliy qadriyat bo'lgan shaxsning, barcha narsalarning mezoni bo'lgan insonning maqomini mustahkamlashga qaratilgan barcha huquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi. Ushbu institutlar – nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlaridir. Shuning uchun ham huquqiy madaniyatning asosiy xususiyatlari nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlarini “keng xalq ommasining huquqiy normalarini yaratish hamda amalga oshirish jarayonlariga jalb etish... davlat va fuqarolarning o'zaro huquq va burchlari bilan bog'liqligi hamda o'zaro mas'ulligini ta'minlashdir”¹¹. Demak, huquqiy madaniyat davlatning fuqarolar oldidagi va fuqarolarning davlat, jamiyat oldidagi mas'ulligi hamdir. Xalq hokimiyatchiligi ham, aslida, ushbu prinsip asosida quriladi va to'liq amal qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish prinsipi ana shuni taqozo etmoqda;

To'rtinchidan, ular uchun malakali kadrlar tayyorlash masalalarini o'ylab ko'rish, oliy o'quv yurtlarida “ijtimoiy xodim” kasbi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan bo'limlar ochish maqsadga muvofiqdir.

Umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rganmay va ulardan foydalanmay turib, demokratik institutlarni shakllantirish, fukarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas.

Insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda isloxlarni chuqurlashtirishning muxim shartidir. Umumiy tarzda demokratiya deganda xammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikni xokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat kilish tushuniladi. Batafsil taxlil kilinganda esa demokratiya – xalkning o'z erkinligi va mustaqilligiga karashlari xam, har bir shaxsning manfaatlari va xuquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi xarakatlardan himoya qilish xam, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli xam ekanligi ayon bo'ladi.

Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalq qarorlar qabul kilish jarayonlaridan qanchalik

¹¹ *Одилқориев Х.* Конституция ва фуқаролик жамияти. Т.: Шарқ, 2002. 200-б.

xabardorligidir. Hukumat karorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fukarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

Iqtisodiy, siyosiy va xuquqiy makon tegishli boshqichma-boshqich ta'minlab borilmas ekan, insonning barcha xuquqlari – davlat ishlarini yuritishda qatnashishi, e'tikod erkinligi va shu kabi xuquqlar havoda muallaq bo'lib qolaveradi. Aniq yo'lga qo'yilgan qonun tizimi bo'lmas ekan, demokratiya xam bo'lmaydi. Shu bilan birga qonunlarning o'zini qabul qilish, hukumat va beistisno hamma mansabdor shaxslarning amaliy sa'y-xarakatlari aynan shu demokratik mezonlar orqali o'tishi lozim. Bu juda muxim, chunki demokratiya xuquqiy davlatning tarkibiy qismidir.

O'zbekistonda demokratiyaga borishning boshqa yo'li tanlab olindi. Biz mustakil xuquqiy davlatni barpo etishning asosiy maqsad va vazifalarni belgilar ekanmiz, O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorqin cho'qqilariga erishishida madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonparvarlik an'analarining yuksak marralarini egallagan, umuminsoniy qadriyatlar va me'yorlarga sodiq bo'lgan ozod va xar tomonlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini kayta-kayta ta'kidlaymiz.

Xaqiqatan xam demokratiya – faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruxiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari xamdir. An'anaviy madaniyatimiz va xalkimizning xususiyatlari, uning axvol-ruxiyati va ijtimoiy tashkil bo'lish sharoitlari O'zbekiston Respublikasida demokratiyani shakllantirishning, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning eng samarali omillari bo'lishini chuqur tushunamiz.

Xatto demokratiya barqaror bo'lgan mamlakatlarda xam individualizmning ba'zi bir salbiy oqibatlarini ancha qattiq sezilmoqda. Yoshlarning ayrim qismi o'qishga, yuksak kasb maxoratini egallashga intilish o'rniga yengil-yelpi xayotni izlashga, bozorda savdo kilib, mo'may daromad orqasidan quvib, bozor munosabatlarining ibtidoiy yo'llaridan foydalanib, mol-dunyo ortirishga intilayotganligi bejiz emas. Bunga qarshi xuquqiy ta'sir ko'rsatish choralaridan tashqari, boshqa tadbirlar ham ishlab chiqish zarurdir.

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatni fuqarolik jamiyatini va fukarolarning o'z-o'zini boshqarishini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq xolda kelajagimizni qurish uchun xamma asoslarga egamiz.

Mintaqamiz xududida asrlar mobaynida ko'plab sivilizatsiyalarning ravnak topishiga hissa qo'shgan milliy o'ziga xoslikning mazkur barcha xususiyatlari, XXI asr boshlarida O'zbekistondagi g'oyat ulkan o'zgarishlar

xamda yangilanishlarning qudratli poydevori va rag'batlantiruvchi kuchi bo'lib qolishi shubxasiz.

Modomiki shunday ekan hamma jamoat tashkilotlari o'z harakat dasturlarini g'oyaviy jihatdan davr talablariga moslashlari, rivojlangan mamlakatlar kabi konstitutsion huquqiy me'yorlari va qonunchilik tartib-qoidalari doirasida yuksak siyosiy madaniyatga asoslanib faollashuvlari jamiyatni har tomonlama rivojlanib borishiga, jamiyatni demokratlashuv jarayonlarini tezlashuviga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy institut sifatida ish olib borishlari, ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy ma'naviy muammolarni hal etishda faollik ko'rsatsalargina haqiqiy tom ma'nodagi demokratik institutga aylanadilar. Jamiyat orasida obro'-e'tibori oshib, jamiyat a'zolarining diqqat e'tiborini jalb etadilar.

Jamiyatda barqarorlikni saqlash zarurligi haqida gapirar ekanmiz, demokratik institutlar masalasini tilga olmaslik mumkin emas. Bunday institutning mavjud bo'lishi demokratik jamiyat uchun shart bo'lgan va normal holdir.

Demokratik muxolifatning mavjud bo'lish shartlari:

1. tashkiliy jihatdan rasmiylashgan bo'lishi;
2. konstitutsiya va qonun normalarini hurmat qilishi;
3. tegishli yuridik maqomga ega bo'lishi;
4. davlat qurilishining muqobil loyihalariga ega bo'lishi;

o'z harakatlari bilan mamlakatdagi davlat va ijtimoiy tuzumning qat'iy, barqaror holati uchun ma'sul bo'lishi lozim. Jamoat birlashmalari va xalq harakatlari demokratik jarayonlarni rivojlanishi va qaror topishda, jamiyatni har tomonlama rivojlanib borishida katta rol o'ynamoqdalar. Hozirgi kunda O'zbekistonda jamoatchilik birlashmalari ro'yxatdan o'tgan. Bular davlat va jamoat boshqaruvi masalalarini hal etishda faollik ko'rsatmoqdalar. Kasaba, yoshlar, ayollar, faxriylar, sport teatr va boshqalarning ijobiy faoliyatlarini alohida ta'kidlasak arziydi.

Jamoat tashkilotlari mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni saqlashda, milliy ma'naviyatni tiklanishi va rivojlanishida katta ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Davlatimizda xalqimizning turmush tajribasiga respublikamiz aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya tamoyillari qaror topmoqda.

Mamlakatimizda millati, dini va tilidan qat'iy nazar har bir insonning barcha huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush tarzi ta'minlanadigan demokratik rivojlanish, fuqarolik jamiyatini qurish, huquqiy,

demokratik davlat barpo etish kabi maqsadlarni amalga oshirish yo'li izchil davom etmoqda.

Jonajon O'zbekistonimizning mustaqilligi sharofati ila siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy va xalqaro munosibatlarda o'z yo'li va siyosatiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining barcha sohalarda erishgan yutuqlarini nafaqat O'zbekiston xalqi, balki dunyoning qo'pchilik mamlakatlari ham e'tirof etmoqda va his qilmoqda.

Shunday qilib, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlaridan biri – demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari harakatlarining tashkil topishi uchun yetarli darajada shart-sharoitlar, huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, to'la demokratik prinsiplarga asoslanib faoliyat ko'rsatishlari uchun yetarli omillar mavjud. Jamoat tashkilotlarining oliy maqsadi mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligini saqlagan holda, jamiyatni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash va oliy bosqichga ko'tarishdan iboratdir.